

XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARI AHOLISI MILLIY TARKIBI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR

Qarshiyev Islom Maxmarahim o‘g‘li

Termiz davlat universiteti doktoranti (DSc)

<https://orcid.org/0009-0004-0796-1493>

e-mail: qarshiyevislom96@gmail.com

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning ikkinchi yarmi (1950–1980-yillar) davomida O‘zbekiston SSRning janubiy hududlari — Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari aholisining milliy tarkibi, etnik guruhlar dinamikasi va ulardagi tarkibiy o‘zgarishlar Butunittifoq aholi ro‘yxatlari ma’lumotlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqadagi tub joy aholi (o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar) salmog‘ining barqarorligi hamda cho‘llarni o‘zlashtirish va sanoatlashuv jarayonida vujudga kelgan yangi etnik oqimlar (ruslar, ukrainlar, tatarlar) dinamikasi yoritilgan. Shuningdek, qishloq va shahar aholisi milliy tarkibidagi o‘ziga xos tafovutlar hamda 1980-yillar oxirida boshlangan etnik-migratsion siljishlar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Janubiy O‘zbekiston, milliy tarkib, etnik dinamika, o‘zbeklar, tojiklar tatarlar, etnodemografiya, Qarshi shahri.

Аннотация: В данной статье на основе материалов Всесоюзных переписей населения анализируются национальный состав населения, динамика этнических групп и структурные изменения в южных регионах Узбекской ССР — Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях — во второй половине XX века (1950–1980-е годы). В исследовании раскрывается устойчивое преобладание коренного населения региона (узбеков, таджиков, туркмен), а также динамика новых этнических потоков (русских, украинцев, татар), сформировавшихся в результате освоения целинных земель и процессов индустриализации. Кроме того, показаны особенности национального состава сельского и городского населения, а также этно-миграционные сдвиги, начавшиеся в конце 1980-х годов.

Ключевые слова: Южный Узбекистан,

национальный состав, этническая динамика, узбеки, таджики, татары, этнодемография, город Карши.

Abstract: This article analyzes the ethnic composition of the population, the dynamics of ethnic groups, and structural changes in the southern regions of the Uzbek SSR—Kashkadarya and Surkhandarya provinces—during the second half of the twentieth century (1950s–1980s), based on data from the All-Union Population Censuses. The study highlights the stable predominance of the indigenous population (Uzbeks, Tajiks, and Turkmens) as well as the dynamics of new ethnic groups (Russians, Ukrainians, and Tatars) that emerged as a result of virgin land development and industrialization. It also examines the differences in the ethnic composition of rural and urban populations and identifies the ethno-migratory shifts that began in the late 1980s.

Keywords: Southern Uzbekistan, ethnic composition, ethnic dynamics, Uzbeks, Tajiks, Tatars, ethnodemography, Karshi city.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XX asrning ikkinchi yarmi, ayniqsa 1950–1980-yillar Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston SSR demografiya tarixida etnik jarayonlarning jadal transformatsiyalashgan davri sifatida ajralib turadi. Bu davrda respublika miqyosida kechgan urbanizatsiya, sanoatlashuv va ulkan agrar-irrigatsiya loyihalari hududlar aholisining an’anaviy milliy tarkibiga o‘zining jiddiy ta’sirini o‘tkazdi. O‘zbekistonning janubiy mintaqalari hisoblangan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida o‘zbek, tojik va turkman millatiga mansub aholi uzoq asrlar davomida yonma-yon, o‘zaro hamjihatlikda yashab kelgan. Biroq, XX asrning ikkinchi

yarmiga kelib, sovet davlatining markazlashtirilgan iqtisodiy rejalari doirasida yangi hududlarning yalpi o'zlashtirilishi, yangi sanoat korxonalarining barpo etilishi voha ichidagi va viloyatlararo migratsiya oqimlarini keltirib chiqardi. Ushbu jarayonlar natijasida mintaqaga nafaqat respublika ichidagi boshqa viloyatlardan, balki sovet ittifoqining turli hududlaridan slavyan (rus, ukrain) xalqlari, tatar va boshqa o'nlab etnik guruhlar vakillarining kirib kelishi jadallashdi. Bu esa o'z navbatida, an'anaviy qishloq joylari va yangi shakllanayotgan sanoat-shahar markazlarida milliy tarkibning turlicha shakllanishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Janubiy O'zbekiston aholisining milliy tarkibi va etnodemografik rivojlanishiga oid masalalar mamlakat tarixshunosligida turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Mazkur mavzuning nazariy va metodologik asoslarini shakllantirishda sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar muhim o'rin tutadi.

Sovet davrida e'lon qilingan Butunittifoq aholi ro'yxatlari materiallari (1959, 1979, 1989) O'zbekiston SSR hamda uning alohida viloyatlarining milliy tarkibi, etnik guruhlar soni va ularning hududiy joylashuvini yorituvchi asosiy statistik manbalar hisoblanadi. Mazkur nashrlar etnik tarkibdagi o'zgarishlar dinamikasini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Mustaqillik yillarida H.E. Xolmuminov[1] sovet mustamlakachilik siyosatining janubiy viloyatlardagi migratsion jarayonlarga ta'sirini tarixiy nuqtayi nazardan tadqiq etib, davlat tomonidan amalga oshirilgan ko'chirish siyosati hamda uning demografik oqibatlarini yoritgan. N.A. Babadjanova[2] esa sovet totalitar siyosatining O'zbekiston aholisi milliy tarkibi shakllanishiga ta'sirini kompleks ravishda tahlil qilib, respublikadagi etnik tarkibning o'zgarish omillarini ilmiy asoslab bergan. Ushbu tadqiqotlar respublika miqyosidagi umumiy jarayonlarni ochib bergan bo'lsa-da, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining etnik dinamikasini o'zaro qiyosiy asosda alohida tadqiq etish masalasi

yetarli darajada yoritilmagan.

Maqolada, shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari davlat arxivlari hujjatlaridan, mahalliy tarixga oid ilmiy-adabiy manbalardan ham foydalanildi. Ushbu manbalar yangi yerlarni o'zlashtirish, ichki migratsiya, aholini qayta joylashtirish hamda etnik tarkibdagi hududiy o'zgarishlarni aniqlashtirish imkonini berdi.

Tadqiqotda tarixiylik, xolislik, tizimlilik va qiyosiy-tarixiy yondashuv tamoyillari asos qilib olindi. Shuningdek, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, tarixiy-komparativ, tarixiy-demografik hamda tarixiy-genetik metodlardan foydalanildi. Statistik ma'lumotlar asosida 1959, 1979 va 1989-yillardagi aholi ro'yxatlari natijalari o'zaro taqqoslanib, etnik guruhlarining son va ulushidagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Arxiv hujjatlari va ilmiy adabiyotlar bilan statistik ma'lumotlarni o'zaro solishtirish orqali migratsiya siyosati hamda uning janubiy hududlar etnik tarkibiga ko'rsatgan ta'siri kompleks tarzda baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSION). XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston SSR miqyosida kechgan demografik o'zgarishlar fonida janubiy mintaqalar — Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari o'ziga xos etnodemografik o'sish va transformatsiya dinamikasini namoyon etdi. 1959-yilgi Butunittifoq aholi ro'yxatiga ko'ra, respublika yalpi aholisi 8 105 704 kishini tashkil etgan bo'lib, unda o'zbeklar 5 038 273 kishi (62,15 %), ruslar 1 090 728 kishi (13,45 %), tojiklar 511 375 kishi (6,3 %) va tatarlar (qrim tatarlari bilan birga) 444 810 kishi (5,48 %) bilan yetakchi o'rinlarni egallagan[8].

Aynan respublika miqyosidagi ushbu demografik salohiyat va voha ichidagi irrigatsiya ob'ektlarining ishga tushirilishi janubiy hududlarda aholining qayta joylashishi va etnik tarkibining o'zgarishiga olib keldi.

Hukumat tomonidan agrar va sanoat ob'ektlarini ishchi kuchi bilan ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan ichki ko'chirish siyosati natijasida:

1950-yil mart oyida Xo‘janqo qishlog‘i aholisi Angor tumanidagi “Tallimaron” massiviga ko‘chirildi[5,6].

1954–1955-yillarda Sherobod-Beshqo‘ton cho‘lini o‘zlashtirish doirasida Darband qishlog‘idan 150 ta xo‘jalik Muzrabot tumaniga, Boysunning “Yangiobod” va “Sayrob” qishloq kengashlaridan esa jami 257 ta oila (372 kishi) Beshqo‘ton massiviga joylashtirildi[7].

1951–1955-yillarda Qashqadaryoning 51 ta kolxozidan 6 593 ta xo‘jalik, 1959-yil dekabrda hukumat qaroriga ko‘ra esa Qarshi, G‘uzor, Qamashi tumanlaridan yana 400 ta xo‘jalik boshqa hududlardagi yangi ochilgan yerlarga yo‘naltirildi.

Ushbu jarayonlarning 1979–1989-yillar oralig‘idagi yakuniy statistik ko‘rinishi viloyatlar kesimida quyidagi raqamlarda aks etdi:

1-jadval. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari aholisining etnik dinamikasi (1979–1989-yy.)

Viloyat va etnoslar	1979-yil (kishi)	1989-yil (kishi)
Qashqadaryo (Jami)	1 124 342	1 595 760
* O‘zbeklar	975 006	1 399 238
* Ruslar	33 585	37 579
* Tojiklar	55 054	79 876
* Tatarlar	26 371	21 184
* Turkmanlar	12 469	19 722
Surxondaryo (Jami)	896 747	1 249 879
* O‘zbeklar	694 580	993 244
* Tojiklar	113 032	160 837
* Ruslar	38 801	37 846
* Tatarlar	18 516	16 996
* Turkmanlar	13 685	18 225

Mintaqadagi urbanizatsiya jarayonlarining eng yuqori nuqtasi Qarshi shahrida kuzatilib, 1989-yilda shahar aholisi tarkibida o‘zbeklar 68,9 %, ruslar 15,0 %, tatarlar 6,2 %, ukrainlar 1,7 % va tojiklar 1,1 % ni tashkil etdi. Shaharda jami 50 dan ortiq millat vakillari ro‘yxatga olindi[9,10].

O‘zbekiston janubiy vohalarining XX asr ikkinchi yarmi demografik ko‘rsatkichlari tizimli tahlil qilinganda, hudud aholisi milliy tarkibidagi o‘zgarishlar evolyutsiyasi o‘ziga xos qonuniyatlarga ega bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Birinchidan, 1950–1970-yillardagi birinchi bosqichda etnik differentsiatsiya (rang-baranglik) va trans-etnik ijtimoiy muhitning sun‘iy shakllanishi ustunlik qildi. Bu hodisa bevosita sovet hokimiyatining iqtisodiy-irrigatsiya loyihalari bilan bog‘liq edi. 1959-yilda respublika bo‘yicha mavjud bo‘lgan 1,09 million rus va 444,8 ming tatar aholisining

muhandis-texnik qatlamlari, yangi ochilgan Qarshi va Surxon-Sherobod cho‘llari infratuzilmasini barpo etish uchun janubga yo‘naltirildi. Natijada Qarshi kabi shahar markazlarida o‘zbek bo‘lmagan etnoslar salmog‘i (ayniqsa, ruslar 15 % va tatarlar 6,2 %) yuqori ko‘rsatkichga yetdi. Arxiv hujjatlarida aks etgan ichki majburiy migratsiya (Darband, Boysun va Xo‘janqo aholisining tekisliklarga ko‘chirilishi) ham qishloq joylarida aholi zichligini sun‘iy ravishda o‘zgartirdi.

Ikkinchidan, 1979–1989-yillardagi ikkinchi bosqichda etnik dinamikada "teskari burilish" yoki indigenizatsiya (milliylashuv) jarayoni kuchaydi. Taqdim etilgan 1979 va 1989-yillar aholi ro‘yxati qiyosiy ma‘lumotlari bu ilmiy xulosani mutloq tasdiqlaydi. Bu holat mahalliy aholining an‘anaviy yuqori tabiiy ko‘payish koeffitsienti voha demografik manzarasining asosi bo‘lib qolganidan dalolat beradi.

Uchinchidan, Yevropa guruhiga mansub aholi (ruslar, tatarlar) sonining 1980-yillar oxiriga kelib mutloq va nisbiy jihatdan kamayishi (Surxondaryoda ruslar 38,8 mingdan 37,8 mingga, tatarlar esa har ikki viloyatda bir necha mingga kamaygan) mintaqaviy iqtisodiy o'zgarishlar bilan izohlanadi. Yirik gidrotexnik loyihalar (Uchqizil, Qarshi kanallari tizimi) qurilishi yakunlangach, tashqi ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj pasaydi. Ikkinchi tomondan, mahalliy aholining jadal ko'payishi mehnat bozorida ishchi kuchi profitsitini keltirib chiqardi va bu Yevropa tilli aholining mintaqadan tashqariga emigratsiyasini tezlashtirdi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). XX asrning ikkinchi yarmida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining etnik tarkibi sovet davridagi iqtisodiy, ijtimoiy va migratsion siyosat ta'sirida sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Cho'l hududlarini o'zlashtirish, yirik irrigatsiya tizimlarining qurilishi hamda sanoat korxonalarining barpo etilishi natijasida mintaqaga respublikaning boshqa hududlari va sobiq Ittifoqning turli respublikalaridan ko'plab aholi ko'chirildi. Bu jarayon janubiy vohalarda

ko'p millatli etnodemografik muhitning shakllanishiga xizmat qildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur davrda o'zbeklar mintaqaning asosiy etnik qatlamini saqlab qolgan bo'lib, tojik va turkman aholisi ham barqaror demografik o'sishni namoyon etdi. Aksincha, ruslar, ukrainlar va tatarlar soni dastlab migratsiya hisobiga ortgan bo'lsa-da, 1980-yillar oxiriga kelib iqtisodiy omillarning o'zgarishi hamda migratsion jarayonlar ta'sirida ularning ulushi kamayishni boshladi. Ayniqsa, shahar va qishloq aholisining milliy tarkibi o'rtasidagi tafovutlar urbanizatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllandi.

Shunday qilib, XX asrning ikkinchi yarmida Janubiy O'zbekiston etnik tarkibidagi o'zgarishlar tabiiy demografik o'sish va davlat tomonidan amalga oshirilgan migratsion siyosatning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan murakkab etnodemografik jarayonlarni aks ettiradi. Mazkur tadqiqot natijalari Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tarixiy-etnik rivojlanishini ilmiy asosda baholash, mintaqadagi demografik transformatsiyalarni tushunish hamda O'zbekiston etnodemografiyasi tarixini yoritishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Холмўминов Х.Э. Ўзбекистонда совет мустамлакачилиги сиёсатининг миграцион жараёнларга таъсири (жанубий вилоятлар мисолида, 1946–1990 йй.): тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент: 2007. – 150 б.
2. Бабаджанова Н.А. Совет тоталитар сиёсатининг Ўзбекистон аҳолиси миллий таркиби шаклланишига таъсири (1941–1990 йй.): тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 2008. – 164 б.
3. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi, 133-fond, 1-ro'yxat, 2095-ish, 35-varaq.
4. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 474-fond, 1-ro'yxat, 6-ish, 3-varaq.
5. Lapasov, A. (1992). Istiqlol yo'li: Angor. Termiz: Jayhun, 4-5-betlar.
6. Boboyev, M. (2004). Xo'janqolik shifokor. Toshkent: Yangi asr avlodi, 28-bet.
7. Shoimov, P. (1999). Darband – qadimiy makon. Qarshi: Nasaf, 13-bet.
8. Всесоюзная перепись населения 1959 года. Национальный состав населения по республикам СССР Москва: Госстатиздат.
9. Всесоюзная перепись населения 1979 года. Национальный состав населения Узбекской ССР Ташкент: ЦСУ УЗССР.
10. Всесоюзная перепись населения 1989 года. Распределение населения по национальности и языку. Москва: Финансы и статистика.